

UDK: 636.32

QO'ZILARNING JUN-TOLA QOPLAMINING SIFATIIY VA O'LCHAMLI KO'RSATKICHLARI

Nazarova Mohira Azamatovna, Xursandova Shohsanam O'ktam qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada qorako'l qo'zilarni rangining ifodalanishi va tekisligining turli tipli qo'zilarda turli darajada namoyon bo'lishi ushbu xususiyatlar qo'zilar terisi sathidagi gul shakllarining xilma-xilligidan ham kelib chiqishi bilan taqqoslanganli to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Gul tipi, yassi, qovurg'asimon, yarim doira, qorako'l qo'zilari, qalamgul.

Ключевие слова. Плоский, ягнят, полукруглый, ребристый, кавказский.

Jun tolalarining ipaksimonligi, yaltiroqligi, uzunligi va zichligi kabi seleksion ko'rsatkichlar qo'zilarni baholashda inobatga olinadigan muhim belgilar hisoblanadi.

Jun tolalarining ipaksimonlik va yaltiroqlik darajalari, optimal uzunlikka ega bo'lishi va teri sathida zich bo'lishi qorako'l mahsulotining sifatini, gullarning qimmatlilikini, mustahkamligini belgilaydi. SHu bilan bir qatorda ushbu ko'rsatkichlarning optimal va maksimal darajalarda namoyon bo'lishi qo'ylarning nasliy qimmatlilikini va ular bilan olib boriladigan seleksiya-naslchilik hamda urchitish ishlarining samaradorligini oshiradi.

Ko'pchilik tadqiqotlarda ushbu ko'rsatkichlarning turli gul tipiga mansub qo'zilarda namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, farqlanish va o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi kuzatilgan.

Jun tolalarining ipaksimonligi va yaltiroqligi. Bu borada yassi gul tipiga mansub qo'zilarda ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish xususiyatlari boshqa tipli qo'zilar ko'rsatkichlari bilan qiyosiy o'rganildi.

Jadval ma'lumotlarida olingan natijalar jun-tolalarining ipaksimonlik va yaltiroqligi bo'yicha yassi tipli qo'zilar ko'rsatkichlarining sezilarli yuqoriligini ko'rsatadi. Kuchli va me'yorli ipaksimonlik va yaltiroqlikning yarim doira qalamgul hamda qovurg'asimon tiplari ko'rsatkichlari bilan deyarli bir xilligi sharoitida bo'lib, (85,3-88,6%) yassi tipli qo'zilarda kuchli ipaksimonlikka ega qo'zilar

salmog‘ining 9,7-14,3 foizga, kuchli yaltiroqlikka ega qo‘zilar salmog‘ining 13,8-15,6 foizga yuqoriligi fikrni isbotlay oladi.

1-jadval


Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning jun – tola sifati

Gul tipi	n	Jun – tola ipaksimonligi, % ($\bar{X} \pm S\bar{X}$)		
		Kuchli	Me‘yorli	Etarsiz
Yassi	52	41,4±6,21 ^{x)}	41,7±6,28	11,5±4,02 ^{x)}
Yarim doira qalamgul	48	31,7±5,56 ^{x)}	55,6±5,94	12,7±3,98 ^{x)}
Qovurg‘asimon	48	7,1±5,96 ^{x)}	58,3±7,12	14,6±5,10 ^{x)}
O‘siqgul	50	8,9±4,22	53,3±7,44	37,8±7,23

X- R<0,05;

O‘siqgul tipli qo‘zilar ko‘rsatkichining qolgan tiplar ko‘rsatkichlaridan statistik ishonchli (R<0,05;0,001) ravishda pastligi aniqlandi.

Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning jun – tola sifati



1-rasm.

Jun–tola uzunligi va zichligi. Ma‘lumki, qorako‘lchilikda hayvonlarning nasl qimmatlari ularda 30 ga yaqin seleksion belgilarning namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Ularning yuqori darajada namoyon bo‘lishi nasliy qimmatlikni oshiradi, past darajada namoyon bo‘lishi esa kamaytiradi.

Ko‘pchilik seleksion ko‘rsatkichning namoyon bo‘lishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biri–bu jun tolalarining uzunligi va zichligidir. Shu nuqtai nazardan ushbu belgilarga seleksiya jarayonida doimiy e‘tibor qaratiladi.

Ushbu belgilarning irsiylanishi, naslga berilishi, turli sharoitlarga bog‘liq holda o‘zgaruvchanligi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va uning seleksion ahamiyati ko‘rsatib borilgan.

Belgining o‘zgaruvchanlik xususiyatlari unga doimiy e‘tiborni talab qiladi. Shu jihatdan ularni seleksiya jarayonida doimo nazoratda ushlab, uning namoyon bo‘lishini boshqarib turish yo‘llarini aniqlash qorako‘lchilikda dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqotlarda turli gul tipidagi qo‘zilarga xos jun–tola uzunligini va uning o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini hamda qoplami zichligini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Ma’lumotlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Bobokulov N.A., Yuldoshov N., Fazilov U.T., Xakimov O‘.N. va boshqalar. “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent.:2015.31 b
2. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Fazilov U.T., Mamatov B., Boltaev A., “Qorako‘l qo‘zilarida seleksion belgilarni paydo bo‘lish xususiyatlari. Zootsiyeneriya j.Toshkent №6. 2016, 34-34 b.
3. Yusupov S. YU., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Nazarova M. Qorako‘l qo‘ylar xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi. «CHO‘L – yaylov chorvachiligi va ozuqa etishtirish muammolari” QCHEITInstitutning 85 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand sh. 2015 y. 222 bet.
4. Azamatovna, N. M., & Nayimovich, X. J. (2023). Sur rangli qorako‘l qo‘ylarini gul tiplariga taqsimlanishi. QISHLOQ XO‘JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI, 125-131.
5. Nazarova, M. A. (2023). Turli xil gul tipiga mansub sur rangli qo‘zilarining terisida gul uzunligi va kengligi ko‘rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 92-93.
6. Nazarova, M. (2023). Sur rangli qorako‘l qo‘ylarining jun-tola qoplami ko‘rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 94-96.
7. Nazarova, M. A. (2023, January). QORAKO‘L QO‘ZILARNI TIRIK VAZN KO‘RSATKICHLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 602-605).
8. Nazarova, M. A., & Shinayeva, G. H. (2023). QO‘YLARNING MUTLAQ VA NISBIY O‘SISH KO‘RSATKICHLARIGA ETOLOGIK XUSUSIYATLARINING TA‘SIRI. Scientific Impulse, 1(9), 430-434.
9. Nazarova, I. B. (2022). A NATIONAL POP ACTOR AND HIS SPEAKING SKILLS. MEJDUNARODNYY JURNAL ISKUSSTVO SLOVA, 5(4).